MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON V-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

KORXONA RAHBARIYATI TOMONIDAN ICHKI NAZORAT TIZIMINING CHETLAB O‘TILISHI BILAN BOG‘LIQ AUDITORLIK RISKLARINI BAHOLASH 9
Botirova Rahimaxon, Sirojiddinov Ikromiddin
PA-6 ASOSLI NANOKOMPOZIT OLISH TEXNOLOGIYASI VA TAHLIL USULLARI 16
Qurbonov Mahmudjon Xusanboy o‘g‘li
QASHQADARYO VILOYATIDA TASHQI VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI 21
Xadjibekova Aziza Akbarovna
ALSI QOPLAMALI HS1300T/950Y MS MARTENSITLI PO‘LATNI FIBER LAZER BILAN KESISHDA YORDAMCHI GAZ TURI VA QOPLAMANING SHLAK HOSIL BO‘LISHIGA TA’SIRI 31
Alijonov Qobiljon, Tursunov Shovkat
OCHIQ BANK EKOTIZIMIDA RISKLARNI MIQDORIY BAHOLASH VA MONITORING QILISH MODELLARI: “ORIENT FINANS” XATB MISOLIDA 39
Abduvahobov Shohruh Xolmo‘min o‘g‘li
SILINDRIK ADSORBSION FILTRLARDA O‘ZGARUVCHAN TEZLIKLI RADIAL OQIM SHAROITIDA BIR KOMPONENTLI MODDANING KO‘CHISHI VA ADSORBSIYASINI GRANULA ICHIDAGI DIFFUZIYANI HISOBGA OLGAN HOLDA HISOBLASH TAJRIBALARI 46
Ermonova Mohinur Umidjon qizi
O‘ZBEKISTONDA SANOAT MAHSULOTLARINI MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI CHUQURLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 56
Sobitova Ra’no Solidjonovna
KOMMUNAL XO‘JALIKNI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI SHAHAR” TEXNOLOGIYALARINING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH 60
Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ БАНКОВ И МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ КРЕДИТНЫХ ПРОЦЕССОВ 66
Хаитов Хаёт
YIGIRUV JARAYONIDA HOSIL BO‘LADIGAN TOLA CHIQINDILARIDAN QAYTA FOYDALANISHNING IP SIFATIGA TA’SIRI 71
Shodmonkulov Alisher, Jalilov Dilshod
GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINING EKSPLUATATSION ISHONCHLILIGINI OSHIRISHDA INYEKSIYA CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI 77
Qahhorov O‘ktam, Kurbanova Khurshida, Kurbonov Ulug‘bek
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI STANDARTLASHTIRISH VA NAZORAT QILISHDA XITOY TAJRIBASI HAMDA UNI O‘ZBEKISTON AMALIYOTIGA MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 86
Muminov Najmiddin, Bakiyev Elyorbek
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI 93
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich
DESIGNING A REPRODUCIBLE FRAMEWORK FOR RESPONSIBLE AI-ENABLED HUMAN RESOURCE ANALYTICS IN HIGHER EDUCATION: A METHODOLOGICAL STUDY IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN 102
Narmuradova Sitora Aktamovna
YASHASH VA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI 108
Ganiyev Firdavs Abduraufovich

ANALYSIS OF THE POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF ENTERPRISES 113
Shakirova Farogat Boltayevna
KORXONALARDA LOGISTIK KONSENTRATSIYA VA TAQSIMOT TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASH STRATEGIYALARI 119
Bazorboyeva Farangiz, Xudiyarova Shahzoda, Narzullayev Shodiyor
TEMIR YO‘L KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 125
Misirov Xurshid Mamasobirovich
TA’MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 132
Rahmataliyev Salohiddin, Obidjonov Azizbek, Erkinxojiyev I.I
IQTISODIYOTDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI 138
Karimov Abdusamat Ismonovich
TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH STRATEGIYASINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 144
Nasibboyev Fazliddin Sirojiddinovich
YASHIL INNOVATSIYALARNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI 150
Razakova Barno Sayfiyevna
TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA HR AMALIYOTLARINING SAMARADORLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH: XORIJIY TADQIQOTLAR SHARHI VA USLUBIY YONDASHUVLAR 156
Xursanova Gulshan Ravshan qizi
FARG‘ONA VODIYSI TUMANLARINI INTEGRAL BAHOLASH VA TIPOLOGIYALASH ASOSIDA INVESTITSION RIVOJLANISH YO‘NALISHLARINI ASOSLASH 162
G‘ulomov Ulug‘bek G‘afurovich
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 169
Kulboyeva Nargiz Majitovna
QASHQADARYO VILOYATI TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISHNING HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 176
Uzoqov Jamshid, Boboqulov Oybek
O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH TIZIMI: SHARIAT BOSHQARUVI MODELINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 182
Sulaymanov Arslonbek Faxriddin o‘g‘li
SAMARQAND VILOYATI XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH 189
Shadiyeva Gulnora, Yuldasheva Sevinch
IJTIMOIY MEDIA FAOLLIGINING OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MANFAATDOR TOMONLAR TOMONIDAN IDROK ETISHDAGI ROLI 194
Urinov Bobur, Nazarov G‘ulom
YASHIL KREDITLASH AMALIYOTINING XALQARO TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH 202
Usmonova Gulasal Akmal qizi
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН 207
Махамбетова Урингуль Реймбаевна
TRANSPORT VOSITALARINI KORROZIYADAN HIMOYA QILUVCHI QOPLAMANING ADGEZION MUSTAHKAMLIGINI TADQIQ QILISH 213
Ibragimov Botir Dastamovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SPORT TASHKILOTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 220
Yusupov Maxamadamin, Zakirova Umida
IQTISODIY SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH OMILI SIFATIDA 225
Dadayev Quvonish Mashrabovich
MAISHIY XIZMATLAR SIFATINING MIJOZLAR SODIQLIGI VA KORXONALAR DAROMADIGA TA’SIRI 235
Shadiyeva Gulnora, Sharipova Yulduz
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RISK-YO‘NALTIRILGAN ICHKI AUDIT VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH 240
Halilov Boburjon Sobirjon o‘g‘li
SAMARQAND VILOYATIDA BILIMGA ASOSLANGAN XIZMATLAR (ALOQA-AXBOROT VA MOLIYAVIY XIZMATLAR) RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI 250
Abdullayev Jamshid Obidovich
SUT YO‘NALISHIDAGI CHORVACHILIKDA OZUQA XARAJATLARINI ENERGIYA EHTIYOJI (MJ) BO‘YICHA TAQSIMLASH VA MAHSULOT TANNARXINI KO‘P DRAYVERLI KALKULYATSIYA QILISH MODELI 258
Mardonov Mamed Shavkatovich
QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI 265
Boboyeva Shoira Shoniyozovna
SAMARQAND VILOYATI OZIQ-OVQAT SANOATIDA MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI 271
Shadiyeva Gulnora, Jumayev Shoxrux
MARKAZIY BANK MUSTAQILLIGI VA INFLATSIYANI MAQSADLI BOSHQARISH REJIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI 279
Safarov Sardor O‘tkirjon o‘g‘li
DOES REGIONAL ECONOMIC INTEGRATION PROMOTE ECONOMIC GROWTH? EVIDENCE FROM THE EURASIAN ECONOMIC UNION (EAEU) – USING PANEL DATA ANALYSIS, 2000–2025 283
Muhammad Eid Balbaa
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI: MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA IQTISODIY O‘SISH BILAN BOG‘LIQLIGI 289
Zuvaydullayev Nematullo Oybek o‘g‘li
TRANZIT YO‘LDAGI SERVIS MAJMUASINI LOYIHALASH VA XALQARO AVTOPOYEZDLAR UCHUN TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNIK SERVIS TIZIMINING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGI 295
Do‘maxonov Furqatbek Shuxrat o‘g‘li
STRATEGIK MENEJMENT ORQALI MILLIY IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH 303
Oralbaeva Diana, Koshanov Abdimurat

STRATEGIK MENEJMENT ORQALI MILLIY IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH

Oralbaeva Diana
Nukus davlat texnika universiteti menejment yo‘nalishi talabasi
E-mail: oralbaevadiana@gmail.com

Ilmiy rahbar: Koshanov Abdimurat
Nukus davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada strategik menejment vositalari orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion rivojlanish, inson kapitali, investitsiyalarni jalb qilish va tashqi bozorlardagi mavqe bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Tadqiqotda strategik rejalashtirish, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kengaytirishning ahamiyati yoritilgan. O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida strategik boshqaruvning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan. Shuningdek, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik ustuvorliklarning namunaviy taqsimoti taklif etilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, korxonalar samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: strategik menejment, milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, eksport, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты повышения конкурентоспособности национальной экономики посредством инструментов стратегического менеджмента. Конкурентоспособность национальной экономики анализируется во взаимосвязи с эффективностью производства, инновационным развитием, человеческим капиталом, привлечением инвестиций и позициями на внешних рынках. В исследовании раскрывается значение стратегического планирования, эффективного распределения экономических ресурсов, внедрения цифровых технологий и расширения экспортного потенциала. На основе показателей развития экономики Узбекистана за последние годы определены приоритетные направления стратегического управления. Кроме того, предложено примерное распределение стратегических приоритетов, направленных на повышение конкурентоспособности национальной экономики. Результаты исследования могут служить основой для разработки практических рекомендаций по совершенствованию экономической политики, повышению эффективности деятельности предприятий и обеспечению устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: стратегический менеджмент, национальная экономика, конкурентоспособность, экономический рост, инновации, производительность труда, инвестиции, экспорт, человеческий капитал, цифровая экономика.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of enhancing the competitiveness of the national economy through strategic management tools. The competitiveness of the national economy is analyzed in relation to production efficiency, innovative development, human capital, investment attraction, and positions in foreign markets. The study highlights the importance of strategic planning, efficient allocation of economic resources, implementation of digital technologies, and expansion of export potential. Based on Uzbekistan’s economic development indicators in recent years, the priority areas of strategic management are identified. Furthermore, a model allocation of strategic priorities aimed at enhancing the competitiveness of the national economy is proposed. The research findings provide a basis for developing practical recommendations to improve economic policy, increase enterprise efficiency, and ensure sustainable economic growth.

Keywords: strategic management, national economy, competitiveness, economic growth, innovation, labor productivity, investment, exports, human capital, digital economy.

KIRISH

Globallashuv, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi va texnologik o‘zgarishlarning jadallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish har bir mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Milliy raqobatbardoshlik nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki resurslardan

samarali foydalanish, innovatsion mahsulotlar yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va xalqaro bozorlarda barqaror mavqega ega bo‘lish bilan ham belgilanadi.

Mazkur jarayonda strategik menejment alohida ahamiyat kasb etadi. Strategik menejment iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, mavjud resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish, tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni baholash va kutilayotgan natijalarni monitoring qilishga xizmat qiladi. Davlat darajasida strategik boshqaruv iqtisodiy siyosatning izchilligini ta’minlasa, korxonalar darajasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham ishlab chiqarish, xizmatlar, tashqi savdo va investitsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti real hisobda 7,7 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 6,8 foizga, bozor xizmatlari hajmi 14,7 foizga o‘sgan. Eksport hajmining o‘sishi esa 24 foizni tashkil etgan [1]. Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiy faollikning kengayganini ko‘rsatadi. Biroq uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun o‘sish sur’atlari bilan bir qatorda mahsulotning qo‘shilgan qiymati, texnologik darajasi va ishlab chiqarish samaradorligini ham oshirish talab etiladi.

Jahon bankining O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha tahlilida xususiy sektorni rivojlantirish, raqobat muhitini kuchaytirish, savdo integratsiyasini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirish muhim yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan [2]. Shu sababli strategik menejmentni takomillashtirish milliy iqtisodiyotning mavjud imkoniyatlarini samarali ishga solish va uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — strategik menejment vositalari orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik menejment va raqobatbardoshlik masalalari iqtisodiy nazariya va boshqaruv fanida keng o‘rganilgan. M. Porter raqobatbardoshlikni korxonalar va tarmoqlarning raqobat ustunliklarini shakllantirish, xarajatlarni boshqarish hamda mahsulotni farqlash imkoniyatlari bilan bog‘laydi [3]. Uning yondashuviga ko‘ra, barqaror raqobat ustunligi faqat arzon ishlab chiqarish bilan emas, balki innovatsiya, sifat va bozor talabiga moslashish orqali ham ta’minlanadi.

H. Mintzberg strategiyani shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarida tashkilotning ichki imkoniyatlari hamda tashqi muhitini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi [4]. Ushbu yondashuv davlat iqtisodiy siyosatida ham qo‘llanilishi mumkin: strategik maqsadlar mavjud resurslar, institutsional sharoitlar va kutilayotgan xavflar bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan muvozanatlashgan ko‘rsatkichlar tizimi strategik maqsadlarni moliyaviy natijalar, mijozlar, ichki jarayonlar va rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash imkonini beradi [5]. Milliy iqtisodiyot miqyosida ushbu yondashuv iqtisodiy o‘sishni eksport sifati, mehnat unumdorligi, innovatsiyalar va inson kapitali rivoji bilan birgalikda baholashga yordam beradi.

Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha iqtisodiy memorandumida xususiy sektor yetakchiligidagi o‘sishni jadallashtirish, raqobatni kuchaytirish, texnologik cheklovlarni kamaytirish va inson kapitalini rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan [2]. Bu tavsiyalar strategik menejmentni iqtisodiy siyosat va korporativ boshqaruv darajalarida uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish uchun strategik maqsadlar, resurslar va natijalarni yagona tizimda boshqarish talab etiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida strategik menejmentning ustuvor yo‘nalishlarini aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash va ularning bajarilishini muntazam baholab borish muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv va strategik rejalashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy yo‘nalishi strategik menejment vositalari bilan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini belgilovchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdan iborat.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi:

- Mehnat unumdorligi — bir xodim yoki sarflangan ish vaqtiga to‘g‘ri keladigan mahsulot va xizmatlar hajmi.
- Eksport raqobatbardoshligi — eksport hajmi, mahsulot tarkibi, geografik diversifikatsiya va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi.
- Innovatsion faollik — yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish.

- Investitsion samaradorlik — investitsiyalarning ishlab chiqarish quvvatlari, bandlik va unumdorlikka ta'siri.
- Inson kapitali — xodimlarning bilim, malaka va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati.
- Institutsional samaradorlik — raqobat muhitining sifati, tartib-taomillarning aniqligi va tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar.

Mazkur ko'rsatkichlarni alohida tahlil qilish bilan birga, ularni yagona monitoring tizimida birlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda har bir strategik yo'nalish uchun aniq maqsadli ko'rsatkichlar, mas'ul tashkilotlar, amalga oshirish muddati va natijalarni baholash mezonlari belgilanadi.

Tadqiqotda keltirilgan statistik ma'lumotlar O'zbekistonning 2025-yildagi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga asoslanadi. Strategik ustuvorliklarni taqsimlash bo'yicha foizlar esa muallifning namunaviy taklifini ifodalaydi va rasmiy davlat budjeti yoki investitsiyalar taqsimotini anglatmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Strategik menejment milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish imkonini beradi. Bunda davlatning iqtisodiy strategiyasi, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va korxonalar strategiyasi o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak.

Masalan, sanoat korxonalarining texnologik modernizatsiyasi ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishi, mahsulot sifatini yaxshilashi va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash va kasbiy ta'limni rivojlantirish texnologik yangilanishning iqtisodiy samarasini oshiradi (1-jadval).


1-jadval. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda strategik menejment yo'nalishlari[1]

Strategik yo'nalish	Asosiy boshqaruv vositasi	Kutilayotgan natija	Baholash ko'rsatkichi
Sanoatni modernizatsiya qilish	Uzoq muddatli tarmoq strategiyasi va texnologik audit	Mahsulot tannarxini kamaytirish	Bir birlik mahsulot xarajati
Eksportni rivojlantirish	Eksport bozorlari tahlili va diversifikatsiya strategiyasi	Yangi bozorlarni egallash	Eksport hajmi va geografiyasi
Innovatsiyalarni joriy etish	Ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni boshqarish	Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish	Innovatsion mahsulotlar ulushi
Inson kapitalini rivojlantirish	Kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlari	Mehnat unumdorligini oshirish	Bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish
Investitsiyalar samaradorligi	Loyihalarni tanlash va natijadorlik monitoringi	Kapitaldan samarali foydalanish	Investitsiya qaytimi va yangi quvvatlar
Raqobat muhitini yaxshilash	Tartibga solishni takomillashtirish va bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish	Xususiy sektor faolligini oshirish	Faol korxonalar va yangi bizneslar dinamikasi

Jadvaldan ko'rinadiki, strategik menejmentning har bir yo'nalishi aniq natija va o'lchanadigan ko'rsatkich bilan bog'lanishi kerak. Faqat strategik hujjatlarni ishlab chiqishning o'zi yetarli emas; ularning bajarilishi, resurslardan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy natijalari muntazam monitoring qilinishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'sish strategik boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, raqobatbardoshlikni oshirish uchun iqtisodiy o'sishni unumdorlik, innovatsiyalar va eksport tarkibidagi sifat o'zgarishlari bilan mustahkamlash zarur (1-rasm).

1 Manba: Muallif ishlanmasi.



1-rasm. O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining real o‘sish sur’atlari[2]

Gorizontal o‘qda yillar, vertikal o‘qda real YaIM o‘sish sur’atlari aks ettiriladi. Grafikda 2023–2025-yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining 6,3 foizdan 7,7 foizgacha ko‘tarilganini ko‘rish mumkin. Bu iqtisodiy faollikning kengayganini ko‘rsatadi. Biroq YaIM o‘sishining o‘zi raqobatbardoshlik oshganini to‘liq isbotlamaydi. Buning uchun mehnat unumdorligi, eksportning texnologik tarkibi va korxonalar samaradorligi bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham o‘rganilishi kerak.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish uchun strategik boshqaruvning bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarini rivojlantirish zarur.

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida texnologik modernizatsiya va raqamlashtirishni jadallashtirish kerak. Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari energiya va xomashyo sarfini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi.


Ikkinchidan, eksportni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Eksport tarkibida qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatli va texnologik mahsulotlar ulushini oshirish mamlakatning xalqaro bozorlardagi barqarorligini mustahkamlashi mumkin. Buning uchun korxonalarning xalqaro standartlarga moslashuvi, logistika xarajatlarini boshqarish va yangi bozorlar talablarini o‘rganish zarur.

Uchinchidan, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish lozim. Kasbiy ta’lim, zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalari, raqamli savodxonlik va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish iqtisodiyotning uzoq muddatli samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, investitsion loyihalarni tanlashda faqat jalb qilingan mablag‘ hajmiga emas, balki ularning natijadorligiga ham e’tibor berish zarur. Investitsiyalar yangi ish o‘rinlari, ishlab chiqarish quvvatlari, eksport tushumi va mehnat unumdorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi baholanishi kerak.

Beshinchidan, strategik menejmentda natijalarni muntazam baholash tizimini rivojlantirish talab etiladi. Har bir ustuvor yo‘nalish bo‘yicha boshlang‘ich ko‘rsatkich, maqsadli qiymat, amalga oshirish muddati va mas’ul subyektlar aniqlanishi boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshiradi (2-rasm).

2 Manba: Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish strategik ustuvorliklarining namunaviy taqsimoti[3]

Namunaviy taqsimotda texnologik modernizatsiya va raqamlashtirishga 25 foiz ulush ajratilgan. Inson kapitali, eksportni diversifikatsiya qilish va innovatsion faoliyatning har biriga 20 foizdan, institutsional muhitni rivojlantirishga esa 15 foiz ulush berilgan. Bu qiymatlar rasmiy statistika yoki amaldagi davlat xarajatlari tarkibini bildirmaydi; ular strategik rejalashtirish ustuvorliklarini vizual ifodalash uchun keltirilgan.

Mazkur yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning samarasi birgalikda amalga oshirilganda ortishi mumkin. Masalan, raqamlashtirish malakali kadrlar va innovatsion boshqaruv bilan uyg‘unlashgandagina ishlab chiqarish samaradorligiga barqaror ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari strategik menejment milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim boshqaruv vositasi ekanini ko‘rsatadi. Uning samaradorligi uzoq muddatli maqsadlarni aniq belgilash, iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlash, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va natijalarni muntazam baholash bilan belgilanadi.

O‘zbekistonning 2023–2025-yillardagi real YaIM o‘sish ko‘rsatkichlari iqtisodiy faollik kengayayotganini ko‘rsatadi. Biroq barqaror raqobat ustunligini ta’minlash uchun ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga mehnat unumdorligi, mahsulot sifati, eksportning qo‘shilgan qiymati va texnologik darajasini yaxshilash lozim.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Strategik maqsadlarni o‘lchanadigan natijalar bilan bog‘lash. Har bir iqtisodiy tarmoq uchun mehnat unumdorligi, eksport, innovatsiya va resurslardan foydalanish samaradorligi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilanishi kerak.

2. Texnologik modernizatsiyani jadallashtirish. Korxonalarda raqamli boshqaruv, avtomatlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash zarur.

3. Inson kapitalini rivojlantirish. Kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash va zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

4. Eksportning sifat tarkibini yaxshilash. Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarga chiqish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni oshirish kerak.

5. Strategik monitoring tizimini joriy etish. Strategik dasturlar natijalarini muntazam tahlil qilish, samarasi past yo‘nalishlarni aniqlash va resurslarni qayta taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Umuman olganda, strategik menejmentni davlat boshqaruvi va korxonalar faoliyatida izchil qo‘llash O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini samarali ro‘yobga chiqarish, xususiy sektor faolligini kengaytirish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3 Manba: Muallif ishlanmasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda. 2025-yil yakunlari. URL: https://stat.uz/
2. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. 2025. URL: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025
3. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
4. Mintzberg H. The Rise and Fall of Strategic Planning. New York: Free Press, 1994.
5. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press, 1996.
6. OECD. OECD Compendium of Productivity Indicators. Paris: OECD Publishing.
7. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report. Geneva: World Economic Forum.
8. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Selected Issues. Washington, DC: IMF, 2025.
9. World Bank. World Development Indicators. Washington, DC: World Bank.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotni rivojlantirish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilashga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100